

Ko'p o'lchovli kambag'allikni baholash to'g'risida uslubiy NIZOM

Ko'p o'lchovli kambag'allikni baholash to'g'risida uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom deb ataladi) kambag'allikning turfa xil jihatlari, jumladan, asosiy infratuzilma va yashash sharoitlari, sog'liqni saqlash va ijtimoiy kapital, moliyaviy inklyuzivlik va bandlik hisobga olingan holda ilg'or yondashuv tarkibi va shakllanishidagi alohida manbalarning ahamiyatini belgilaydi.

Mazkur Nizom uslubiyoti Jahon Banki ekspertlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (BMTTD), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (UNICEF), UNICEFning Innocenti tadqiqot idorasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YEIK) ning, Oksford Universitetining Kambag'allik va inson taraqqiyoti tashabbusi (OPHI) tavsiyalariga asoslangan.

Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-75-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ko'p o'lchovli kambag'allik faqatgina daromad yoki iste'mol bilan belgilanmaydi, balki ta'lim, salomatlik, toza suv, sanitariya va farovonlikning boshqa jihatlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi odamlarning kundalik hayotiga ta'sir qiladigan o'zaro bog'liq bo'lgan muhtojlik turlarining keng doirasini qamrab oladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalaniladi:

uy xo'jaligi – ma'lum bir turar-joy manzilida birga yashovchi, daromadlari yoki mol-mulkini to'liq yoki qisman birlashtirgan hamda ayrim turdagi tovarlar va xizmatlarni (asosan uy-joy xizmatlari va oziq-ovqat mahsulotlarini) birgalikda iste'mol qiladigan shaxslar guruhi;

uy xo'jaligi kuzatuvi savolnomasi – kuzatuv davomida uy xo'jaligi to'g'risida ma'lumot olish maqsadida aniq shakllantirilgan savollar ro'yxatidan iborat bo'lgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan hujjat;

intervyuyer – kuzatuv jarayonida tanlovga tushgan uy xo'jaliklari a'zolari bilan savol-javob (intervyu) o'tkazadigan hududiy statistika boshqarmasi xodimi;

kambag'allik – aholi iqtisodiy imkoniyatlarining hayot kechirish uchun zarur minimal ehtiyojlarini qondirishiga yetarli darajada bo'lmasligi;

ko'p o'lchovli kambag'allik bu – milliy standartlarga ko'ra asosiy infrastruktura, yashash sharoitlari, ta'lim, salomatlik, bandlik va boshqa ko'rsatkichlarda imkoniyatlari cheklanishi;

ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi (MPI - Multidimensional Poverty Index) – kambag'al odamlar boshdan kechirayotgan umumiy muhtojliklar ulushi bilan qiymati 0 dan 1 gacha bo'lgan ko'rsatkichlar oralig'i. Mazkur ulush ushbu ikki komponent ko'paytirmasi sifatida hisoblanadi: **kambag'allik darajasi** va **kambag'allik chuqurligi** [MPI yoki $M_0 = H * A$]. Bu usul nafaqat kim kambag'al ekanligini aniqlaydi, balki ko'p o'lchamli kambag'allik holati ma'lum odamlar uchun qanchalik keskin yoki shiddatli ekanligini hisobga oladi;

kambag'allik darajasi (H) – mamlakatdagi kambag'allikdagi aholi soni yoki kambag'allik chastotasi yoki **"kambag'allik darajasi"** deb ham ataladi va **ko'p o'lchovli kambag'al** hisoblangan aholi ulushini foizda ifodalaydi. Bu – o'rtacha o'lchangan muhtojlik ko'rsatkichi kambag'allik ostonasidan balandroq yoki unga teng bo'lgan odamlarning aholi umumiy sonidagi ulushi va bunda qiymat 0 dan 100% gacha bo'ladi;

imkoniyatlari cheklanganlik chegarasi (deprivatsiya) – muayyan uy xo'jaligi har bir ko'rsatkichlar kesimida cheklanmagan va muhtoj emas deb hisoblanishi uchun zarur bo'lgan natijalarning minimal darajasiga ega bo'lishi. Masalan, maktab ta'limi bilan bog'liq cheklanganlik va muhtojlik chegarasi o'n bir yildan iborat bo'lishi mumkin. Shunday ekan, odam kamida o'n bir yillik maktab ta'limiga ega bo'lmasa, u mazkur ko'rsatkich kesimida cheklangan va muhtoj deb hisoblanadi;

Vazn koeffitsiyenti – MPI doirasida ko'rsatkichlarga (ular bilan bog'liq tarzda o'lchamlarga) beriladigan qiymat. Vazn koeffitsiyenti o'lchamlar, ko'rsatkichlar va chegaralar kabi vaqt o'tishi bilan belgilanadi. Vazn koeffitsiyentini belgilash har bir cheklanganlik va muhtojlik turining yakuniy o'lchovidagi nisbiy ahamiyatini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi.

kambag'allik chegarasi (k) – mazkur chegarada kamida k-vazn koeffitsiyentli ko'rsatkichlarda ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagilar aniqlanadi. "k" qiymati muayyan shaxs yoki uy xo'jaligi kambag'al deb e'tirof etilish uchun bir vaqtning o'zida boshdan kechirishi kerak bo'lgan cheklanganlik va muhtojlikning minimal darajasi yoki cheklanganlik ballini aks ettiradi.

kambag'allik chuqurligi (Intensivlik) (A). Kambag'allik intensivligi bu – kambag'al odamlar deprivatsiya darajasining o'rtacha bahosidir, yani qanday darajada yetishmovchilikka uchrayotganini ko'rsatadigan o'rtacha ko'rsatkich. Intensivlik mamlakatdagi o'rtacha kambag'al odam qancha foiz darajada turli yetishmovchiliklarga duch kelayotganini ko'rsatadi.

2-bob. Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi

2. MPI (Multidimensional Poverty Index - ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi) – kambag'allikni o'lchashning monetar bo'lmagan vositasi bo'lib, Oksford Universitetining Kambag'allik va inson taraqqiyoti tashabbusi (OPHI) tomonidan ishlab chiqilgan. Bu vosita ko'p o'lchovli kambag'allikni o'lchash uchun mo'ljallanib, kambag'allik kengligi va chuqurligini, shuningdek, umumiy indeksni qamrab oladi. Tahlil birligi va identifikatsiya birligi uy xo'jaligi, mintaqa yoki muassasadan iborat bo'lishi mumkin. Milliy MPI da identifikatsiya birligi sifatida **uy xo'jaligidan** foydalaniladi, negaki kambag'allikni o'lchash uchun mo'ljallangan ma'lumot manbalarining aksariyatiga barcha shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilmagan.

Indeks Alkire-Foster uslubi (AFU) yordamida hisoblanadi. N-MPI indikatorlari yordamida aholi orasidagi kambag'allikning ikki muhim jihati aniqlanadi:

Kambag'allik darajasi (H). Bu ko'rsatkich qanchalik ko'p insonlar kam ta'minlangan toifaga kirishini bildiradi.

Kambag'allik chuqurligi (Intensivlik) (A). Ya'ni kambag'allikni boshidan kechirayotgan aholining nechta sohada va qay darajada muhtoj ekanini baholaydi.

Ushbu ikki ko'rsatkichning birgalikdagi tahlili orqali mamlakatdagi kambag'allikning murakkab va ko'p qatlamli tabiatini aniqroq ko'rish mumkin bo'ladi. Misol uchun, ikki hududda kambag'allar ulushi bir xil bo'lishi mumkin, biroq intensivlik – ya'ni ehtiyojlarning soni va og'irligi – farq qilishi sababli muammolar turlicha bo'lishi mumkin. N-MPI aynan shunday farqlarni ko'rsatib beradi.

3. Milliy ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi (N-MPI) O'zbekistonda kambag'allikni nafaqat daromad yetishmovchiligi orqali, balki aholining turmush

sharoitlari, sog'liq-ijtimoiy imkoniyatlari va bandlik-moliyaviy holati orqali baholashga mo'ljallangan kompleks uslubdir. Ushbu indeks 3 ta o'lcham, 13 ta ko'rsatkich va ularga tegishli cheklanganlik/muhtojlik ostonalari hamda vazn koeffitsiyentlaridan iborat. Mazkur ko'rsatkichlarda to'yib ovqatlanmaslik, toza suv va kanalizatsiyadan foydalanish imkoniyati yo'qligi, ta'lim darajasining cheklangani hamda asosiy xizmat va resurslardan foydalanish darajasi yetarli emasligi kabi o'ta muhtojlik turlari qamrab olinishini ko'rish mumkin. MPIda o'lcham va ko'rsatkichlarni tanlash uchun qo'llanma sifatida Barqaror rivojlanish maqsadlari tamoyillaridan foydalanildi. Taqqoslanadigan o'lchovni yaratish uchun mamlakatimiz uchun bir xil o'lcham, ko'rsatkich, cheklanganlik va muhtojlik chegarasi, vazn koeffitsiyentlari hamda kambag'allik ostonalari qo'llaniladi. Kambag'allik chegarasi ko'rsatkichlar o'rtacha o'lchangan vazn yig'indisining uchdan bir qismi sifatida belgilanadi.

Shunday qilib, Milliy MPIda ko'p o'lchovli kambag'al deb kamida bitta o'lchovda imkoniyatlari cheklangan uy xo'jaligiga deb qaraladi.

4. Quyida har bir o'lcham va ko'rsatkichning batafsil metodologik sharhi keltiriladi (1-ilova):

1-o'lchov. Asosiy infratuzilma va yashash sharoitlari (1/3 vazn) – ushbu o'lcham aholi kundalik hayotining eng asosiy moddiy sharoitlarini tavsiflaydi. Sharoit yetishmovchiligi uy-joy sifati, suv, isitish va maishiy infratuzilmalarning mavjud emasligi orqali aniqlanadi. Har bir ko'rsatkich umumiy o'lcham ichida teng vaznga ega: 1/18.

1.1. Xonadon yashash joyi maydoni (1/18 vazn) – bir kishi uchun yashash maydoni 16 m.kv dan kamroq to'g'ri kelsa, muhtoj hisoblanadi. Zich yashash turar joy sifati pasayishiga, kasallanish xavfi, bolalar uchun dars sharoiti yo'qligi va ijtimoiy farovonlik pasayishiga olib kelishi mumkin.

1.2. Uy-joy sharoitlari (1/18 vazn) – ishlov berilmagan pol (tuproq/qum) yoki devorlar (loy, tosh, guvala, fanera, ikkilamchi ishlatilgan yog'och)ga ega bo'lgan uylarda yashasa, muhtoj hisoblanadi. Uy konstruksiyasining yaroqsizligi sanitariya, sog'liq va xavfsizlik uchun bevosita salbiy oqibatga ega bo'ladi.

1.3. Isitish uchun yonilg'i (1/18 vazn) – hayotga xavf soluvchi issiqlik manbasidan (*yasama isitish moslamasi, ovqat pishirish plitasi/pechkasi, uch toshli o'choq, ochiq olov, isitish moslamasi mavjud bo'lmasa*) yoki uyni isitish uchun sog'liqqa zararli yoqilg'i (*benzin, kerosin, ko'mir, o'tin, hashak, somon, buta, hayvon tezagi, yog'och qirindilari*) dan foydalanayotgan xonadonda istiqomat qilsa, yoqilg'i sifati nafas yo'llari kasalliklari va yong'in xavfini oshiradi. Xalqaro yo'riqnomalarda ham bu indikator asosiy ehtiyoj darajasida ko'riladi.

1.4. Sanitariya (1/18 vazn) – sanitariya sharoitlari yomon bo'lgan xonadonlarda yashasa (xonadondagi hojatxona turi: yerga qazilgan chuqur/o'ra (yaxshilanmagan yoki ventilyatsiya mavjud bo'lmagan), hojatxona mavjud emas yoki qazilgan chuqur/o'ra hech qachon bo'shatilmagan yoki boshqa uy xo'jaliklari bilan birga foydalaniladi). Sanitariya yetishmovchiligi yuqumli kasalliklar xavfini oshiradi va uy xo'jaligining ijtimoiy himoyasizligini kuchaytiradi.

1.5. Ichimlik suvi va uni isitish (1/18 vazn) – xonadonda ichimlik suvi ta'minoti mavjud bo'lmasa yoki suvni isitish kerak bo'lganda qattiq yoqilg'idan (ko'mir, o'tin) foydalanilsa, muhtoj hisoblanadi. Toza suv mavjudligi BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan ham uzviy bog'liq.

1.6. Aktivlarga egalik (1/18 vazn) – asosiy maishiy texnikalardan kamida 5 tasiga (6 tadan: gaz plitasi, sovutgich, televizor, kir yuvish mashinasi, changyutgich, konditsioner) yoki avtomobilga ega bo'lmasa – muhtoj.

2-o'lchov. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy kapital (1/3 vazn) – Mazkur o'lcham sog'liq, ta'lim, oziq-ovqat xavfsizligi va kommunikatsiya imkoniyatlarining mavjudligini baholaydi. Har bir ko'rsatkich (1/12) vaznga ega.

2.1. Oziq-ovqat xavfsizligi (FIES shkalasi) (1/12 vazn) – BMT oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning oziq-ovqat xavfsizligi standartlari bo'yicha (FIES standards) mablag'lari yetmasligi sababli arzon va bir xil oziq-ovqat sotib oladigan yoki yetarli oziq-ovqat olishga imkoniyati cheklangan yoki to'yib ovqatlanmaydigan uy xo'jaliklarida yashasa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi. Oziq-ovqat ehtiyojining qondirilmaganligi inson kapitalining rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

2.2. Davolanishga imkoniyat (1/12 vazn) – so'nggi 3 oyda kasallikni boshdan kechirgan va mablag' yetishmasligi tufayli dori-darmonlar sotib olish imkoniyati cheklangan yoki kasal bo'lib turib shifokorga yoki sog'liqni saqlash muassasalariga (qimmatligi, sifatsizligi, uyda o'zi davolanganligi, uzoqligi, byurokratiya sabablaridan) murojaat qilmagan oila a'zosi mavjud bo'lsa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi. Sog'liqni saqlashda moliyaviy to'siqlar kambag'allikning chuqurlashuviga olib keluvchi asosiy omildir.

2.3. Ta'limga imkoniyat (1/12 vazn) – uy xo'jaligi 18 yoshga yetgan va undan katta a'zolarining hech biri yoki faqat ayollar kamida o'rta maxsus yoki oliy ta'lim olmagan bo'lsa, muhtojlik sharoitida yashayotgan hisoblanadi.

2.4. Axborot texnologiyalariga imkoniyat (1/12 vazn) – uy xo'jaligining 18 yoshga yetgan va undan katta a'zolarida mobil telefoni va kompyuter yoki internetga ulanish imkoniyati mavjud bo'lmasa, muhtojlik sharoitida yashayotgan

hisoblanadi. Raqamli tengsizlik jamiyatda imkoniyatlar teng emasligini kuchaytiradi.

3-o'Ichov. Bandlik va moliyaviy xizmatlarga imkoniyat (1/3 vazn) – Odamning iqtisodiy faoliyati, mehnat bozoriga kirish imkoniyati va moliyaviy xizmatlardan foydalanishini aks ettiradi.

3.1. Ishsizlik (1/6 vazn) – uy xo'jaligida doimiy ish bilan band shaxs bo'lmasa yoxud hozirda 18 yoshga yetgan va undan katta a'zolaridan biri ish qidirayotgan ishsiz shaxs bo'lsa. Ish topa olmaslik daromad va ijtimoiy barqarorlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

3.2. Norasmiy bandlik (1/9 vazn) – uy xo'jaligida ish bilan band a'zolarining yarmidan ko'pi norasmiy ish bilan band bo'lsa. Norasmiy bandlik ijtimoiy himoya, pensiya yig'imi va barqaror daromadning yo'qligiga olib keladi.

3.3. Bank hisob-raqami (1/18 vazn) – uy xo'jaligining 18 yoshga yetgan va undan katta a'zolarida bank hisob raqami yoki plastik kartasi mavjud bo'lmasa. Moliyaviy xizmatlardan chetda qolish kredit, to'lov tizimlari, jamg'arma imkoniyatlarini cheklaydi.

Ishlab chiqilgan N-MPI tuzilmasi O'zbekistonda kambag'allikni aniqlashda an'anaviy daromadga asoslangan yondashuvdan kengroq, ya'ni ko'p yo'nalishtirishli yondashuvni qo'llaydi. Bu metodika aholining real hayot sharoitini turli ko'rsatkichlar orqali baholashga imkon beradi. Chunki kambag'allik faqat daromad yetishmovchiligi bilan cheklanmay, ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy sharoiti, infratuzilma, bandlik, xavfsizlik kabi ko'plab omillarga bog'liq. Shu bois N-MPI tuzilmasi aholining farovonlik darajasini ko'p qirrali tarzda aks ettiradi.

Ko'rsatkichlarning tanlanishi jarayonida aholi ehtiyojlari, mamlakatdagi mavjud statistik ma'lumotlar, xalqaro amaliyot (masalan, UNDP va OPHI metodikalari) hamda O'zbekistonning milliy taraqqiyot ustuvorliklari uyg'unlashtirilgan. Bu yondashuv indeksning mahalliy sharoitlarga mos va real vaziyatni aniq ifodalashga imkon beradi. Har bir ko'rsatkich nafaqat ushbu sohadagi muammolar darajasini, balki aholining ushbu muammolardan qay darajada ta'sirlanganini ko'rsatib beradi.

Natijada, indeks ijtimoiy siyosatni yanada samarali rejalashtirish, ehtiyojmand aholiga aniq yo'naltirilgan yordam choralari belgilash va resurslarni optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv kambag'allikni kamaytirish bo'yicha milliy strategiyalar uchun ishonchli analitik asos yaratadi va aholining turmush sifati bo'yicha ko'p qirrali manzara taqdim etadi.

3-bob. Ma'lumotlarni yig'ish va hisoblash

5. Nizom GSBPMning yig'ish, tahlil qilish bosqichlari doirasida jamlanma va tanlanmani shakllantirish, ma'lumotlarni yig'ishni tashkil etish, dastlabki statistik materiallarini tayyorlash hamda shakllantirishni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ko'p o'lchovli kambag'allik ko'rsatkichlari uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlaridan foydalangan holda shakllantiriladi.

Uy xo'jaliklari kuzatuvi O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida o'tkaziladi. Kuzatuvlar tanlab olingan uy xo'jaliklarining unda ixtiyoriylik tamoyili asosida ishtirok etishi orqali tashkil etiladi. Tanlovga tushgan uy xo'jaliklarida kuzatuv bir oy davomida o'tkaziladi va shundan so'ng boshqa uy xo'jaligiga almashtiriladi. Kuzatuv uy xo'jaligi a'zolari bilan bevosita so'rov (intervyu) o'tkazishga asoslanadi.

6. Tanlanma kuzatuv to'plami uy xo'jaliklari bosh to'plamining bir qismini (0,2 %) tashkil etadi.

Bosh to'plam, O'zbekiston Respublikasida mavjud uy xo'jaliklarining umumiy sonidan iborat. Bosh to'plamga jamoaviy uy xo'jaliklari, ya'ni uzoq muddatdan beri shifoxonada, qariyalar uchun internat-uylarda, maktab-internatlar va boshqa institutsional muassasalarda bo'lgan shaxslar, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotganlar, yotoqxonalarda yashovchi talabalar va shunga o'xshashlar qo'shilmaydi.

7. Uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatuv to'plamini shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda, har bir hudud bo'yicha alohida shahar va qishloq uchun tanlovning birlamchi birliklari (TBB) soni aniqlanadi. Tanlovning birlamchi birligi sifatida shahar va qishloq qatlamlarida mahallalaridan foydalaniladi.

8. Kuzatuvlarda tanlovning birlamchi birliklaridan yarim yil davomida foydalaniladi, shundan so'ng yangilari bilan to'liq almashtiriladi (100% li yarim yillik rotatsiya). Shu tarzda, bir yil davomida ikki marta TBB tanlovi amalga oshiriladi. Tanlanadigan TBB soni har yarim yil uchun 309 tani, bir yilda 618 ta TBBni tashkil etadi. Har bir hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) uchun shu kabi raqamlar mos ravishda o'rtacha 18 tadan 28 tagacha va yiliga 36 tadan 56 tagacha TBBni tashkil etadi.

TBB ro'yxatini shakllantirishda borish qiyin bo'lgan va borib bo'lmaydigan TBB ro'yxatga kiritilmaydi.

9. Har bir tanlab olinayotgan TBBning o'lchami rad javoblari va boshqa natijasiz qatnovlarni, shuningdek, undagi uy xo'jaliklarining ro'yxati yetarli darajada sifatli bo'lmaganligini hisobga olgan holda, kuzatuv o'tkaziladigan uy xo'jaliklari sonidan kam bo'lmasligi kerak.

Agar, birlamchi ro'yxatdagi biror-bir mahallaning o'lchami belgilangan eng oz miqdordan kam bo'lsa, u ushbu shahar/shaharcha yoki qishloq fuqarolar yig'ini hududidagi boshqa mahalla bilan birlashtirilishi kerak. Agar, birlashtirilgandan so'ng ham mahallalarning yig'ma miqdori avvalgidek belgilangan eng oz miqdordan kam bo'lsa, ularga yana bir mahalla qo'shiladi va h.k.

Shu tarzda, har biri, bir va undan ortiq mahallalardan tashkil topgan TBBning yakuniy ro'yxati shakllantiriladi. Tarkibli TBBning uy xo'jaliklari ro'yxati unga kiritilgan mahallalarning barcha uy xo'jaliklarini o'z ichiga oladi, TBB nomi esa, ularning nomlaridan iborat bo'ladi.

10. Ikkinchi bosqichda, TBB tanlovi o'tgandan keyin, joylarda kuzatuv ishlarini o'tkazishdan avval, barcha tanlab olingan mahallalar va qishloqlarda yashovchi uy xo'jaliklarining ro'yxati tuziladi, ulardan shahar va qishloq qatlamlari asosida hududlar bo'yicha oddiy tasodifiy tanlov amalga oshiriladi.

11. Hududlar bo'yicha uy xo'jaliklarini stratifikatsiyalashda (qatlamlarga ajratishda) har bir hudud bo'yicha tanlovning talab etiladigan eng oz o'lchovini va hududlar darajasida natijalarning talab etiladigan aniqlik darajasini ta'minlovchi nomutanosib usuldan (uy xo'jaliklari sonining kvadrat ildizi asosida) foydalaniladi, hisob-kitoblar quyidagi formuladan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$S_i = S \times (\sqrt{Q_i} / \sum_{j=1}^n \sqrt{Q_j}) \quad (1)$$

bunda, S_i – i - hududning tanlov o'lchami;

S – tanlovning umumiy o'lchami;

Q_i – qatlamdagi uy xo'jaliklarining soni;

Q_j – barcha qatlamlar bo'yicha uy xo'jaliklarining umumiy soni.

12. Shahar va qishloq bo'yicha stratifikatsiyalash mos ravishda uy xo'jaliklari soniga asoslangan. Bunda, quyidagi formula yordamida aniqlanadigan mutanosib usuldan foydalaniladi:

shahar uy xo'jaliklari (S_{is}) uchun:

$$S_{is} = S_i \times (Q_{is} / Q_i) \quad (2)$$

bunda, S_i – i - hududning tanlov o'lchami;

Q_{is} – i - hududning shahar joylaridagi uy xo‘jaliklari soni;

Q_i – i - hududdagi uy xo‘jaliklarining soni.

qishloq uy xo‘jaliklari (S_{iu}) uchun:

$$S_{iu} = S_i \times (Q_{iu} / Q_i) \quad (3)$$

bunda, S_i – i - hududning tanlov o‘lchami;

Q_{iu} – i - hududning qishloq joylaridagi uy xo‘jaliklari soni;

Q_i – i - hududdagi uy xo‘jaliklarining soni.

13. Hududlar va shahar/qishloq bo‘yicha stratifikatsiyalash amalga oshirilgandan so‘ng, yillik tanlovning kuzatuv 12 oyiga bo‘linishi zarurati bo‘lganligi sababli, tanlovni qatlamlar bo‘yicha hisoblangan joylashtirishdan biroz farq qilgan holda o‘zgartiriladi.

Masalan: Agar, TBBda bir oyda 3 ta uy xo‘jaligi kuzatilsa, u holda bu TBBda yarim yil uchun $3 \times 6 \text{ oy} = 18$ tadan kam bo‘lmagan uy xo‘jaligi bo‘lishi kerak.

Har ikkinchi uy xo‘jaligi tomonidan “rad javobi” yoki “uyda hech kim yo‘q” javoblari kutilishi mumkinligini hisobga olgan holda, uy xo‘jaliklari soni kamida $18 / 0,5 = 36$ taga ko‘tariladi.

Uy xo‘jaliklari ro‘yxatlarining sifati yomonligi, ya‘ni har o‘ninchi manzil noaniq yoki noturar-joy sektoriga to‘g‘ri kelishi va h.k. holatlarni hisobga olib, TBBning eng oz o‘lchami $36 / 0,9 = 40$ tagacha uy xo‘jaligiga ko‘paytiriladi.

14. Tanlangan uy xo‘jaliklari ro‘yxati, ro‘yxat boshidan boshlab qismlab foydalaniladi. Kuzatuvning birinchi oyi uchun ushbu ro‘yxatdagi uy xo‘jaliklarining birinchi qismi, ikkinchi oy uchun – birinchi oyda foydalanilgan uy xo‘jaliklarining oxirgisidan keyingi turuvchi birinchi uy xo‘jaligidan boshlangan ro‘yxatning ikkinchi qismi belgilanadi va h.k.

15. Joriy oy davomida kuzatuv o‘tkazilishi mo‘ljallangan uy xo‘jaliklari ro‘yxati joylarda kuzatuv ishlarini boshlashdan oldin intervyuyerlarga beriladi. Ro‘yxatlar bilan ishlash, qat‘iy ravishda tanlovning teng ehtimollik tamoyillarini buzmaganda, rad javobi bergan uy xo‘jaliklarini boshqalari bilan almashtirishni nazarda tutuvchi va tanlovning belgilangan o‘lchamiga erishishni ta‘minlovchi ketma-ketlik asosidagi qo‘shimcha tanlov o‘tkazish usuli qoidalari bo‘yicha amalga oshiriladi.

16. Har bir intervyuyer tasdiqlangan ish grafigi asosida uy xo‘jaligiga kuzatuv uchun borganda, uy xo‘jaligi a‘zosi roziligini olgan holda kuzatuv jarayonini rasmga olib, Milliy statistika qo‘mitasiga taqdim etadi. Kuzatuvga

tushgan mahallada kuzatilgan uy xo'jaliklari joylashuvi earth.google.com sayti orqali tekshiriladi.

17. Kuzatilgan uy xo'jaliklarining 15% iga qayta tashrif buyurish orqali ma'lumotlar sifati va haqqoniyligi tekshiriladi. 20 dan ortiq aniqlashtiruvchi savollar beriladi va intervyuyer tomonidan kuzatilgan ma'lumotlar bilan solishtirib ko'riladi.

18. Yakunida ko'p o'lchovli kambag'allik ko'rsatkichlari asosida aholi turmush darajasini aks ettiruvchi jadvallar shakllantiriladi va tahlil qilinadi.

19. N-MPI (ko'p o'lchovli kambag'allikning milliy indeksi) kambag'allik kengligi va chuqurligini tahlil qilish uchun ko'p o'lchovli kambag'allikni o'lchashning Alkire-Foster usuli (AFU)dan foydalaniladi. Metodologiya viloyatlar, aholi punktining turi va genderlar o'rtasidagi farqlarni namoyish etish uchun ajratilgan ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. AFU ikki bosqichni o'z ichiga oladi: aniqlash va umumlashtirish.

Aniqlash. Bu jarayon kambag'allikni baholash uchun qo'llaniladigan o'lcham va ko'rsatkichlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Har bir ko'rsatkichga cheklanganlik va muhtojlik ostonasi biriktirilib, bu orqali uy xo'jaligi yoki jismoniy shaxs muhtojlik sharoitida ekani yoki yo'qligi aniqlanadi. Ushbu chegaralarni qo'llash orqali jismoniy shaxs yoki uy xo'jaliklarini ikki toifaga ajratish mumkin: muhtojlik sharoitida bo'lgan yoki bo'lmagan. Ko'rsatkichlar ikkilik o'zgaruvchilar bo'yicha tasniflanib, bunda "1" muhtojlik mavjudligini anglatrsa, "0" muhtojlik yo'qligini bildiradi.

Umumlashtirish. Ushbu bosqichda shaxs yoki uy xo'jaligi tanlangan vaznli ko'rsatkichlar to'plami orasida duch keladigan muhtojliklar ulushi hisoblanadi. Shaxs inobatga olingan umumiy ko'rsatkichlarning ma'lum qismida muhtojliklarni boshdan kechirsa, "ko'p o'lchovli kambag'allik" sharoitida yashayotgan deb tasniflanadi. Bu, avvalo, har bir shaxs boshdan kechirgan muhtojliklar sonini muhtojlikning o'rtacha o'lchangan balliga qo'shish, so'ngra "kambag'allik chegarasi"ni qo'llash orqali aniqlanadi. Kambag'allik chegarasi — odamni ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi deb tasniflaydigan o'rtacha o'lchangan muhtojliklar foiziga nisbatan qo'llaniladigan baholovchi xulosa. Mazkur o'lchamlararo chegaraning haqiqiyliigi va ishonchliligini tasdiqlash uchun o'zgarishlarga chidamlilik tekshiruvi o'tkaziladi.

AFU usulidan so'ng MPI qiymati ikkita ko'rsatkich ko'paytmasidan iborat bo'ladi: ko'p o'lchovli kambag'allikning tarqalish ko'lam (Kambag'allik darajasi, H) va kambag'allikning namoyon bo'lish darajasi (Kambag'allik chuqurligi, A). MPI qiymatlari 0 dan 1 gacha bo'lib, bunda 0 hech kim hech qanday

ko'rsatkichlarda muhtojlikni boshdan kechirmayotganini ko'rsatadi, 1 esa hamma barcha ko'rsatkichlarda muhtojliklarni boshdan kechirayotganini ko'rsatadi. Ko'p o'lchovli kambag'allikdagi kambag'al aholi soni nisbati aholi tarkibidagi ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitida yashayotgan odamlar ulushini anglatib, kambag'allikning namoyon bo'lish darajasi esa ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi odamlar boshdan kechirayotgan muhtojliklar o'lchangan ko'rsatkichlar to'plamining o'rtacha ulushini aks ettiradi.

20. Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini hisoblash 10 ta bosqichdan iborat:

1- bosqich. Identifikatsiya birligini tanlash – uy xo'jaligi.

2- bosqich. Ko'rsatkichlar to'plamini aniqlash. Masalan, o'qish yillari, uy-joy, munosib mehnat sharoitlari, sog'liq holati.

3- bosqich. Deprivatsiya chegarasini belgilash. Masalan, agar u har bir yosh guruhi uchun milliy darajada belgilangan majburiy ta'limni to'liq tugatmagan bo'lsa, shaxs mahrumlikni boshdan kechiradi.

4- bosqich. Deprivatsiya chegarasini qo'llash. Har bir uy xo'jaligi har bir ko'rsatkich bo'yicha deprivatsiyani boshdan kechirayotganligi aniqlanadi.

5- bosqich. Har bir ko'rsatkich uchun nisbiy vaznni tanlash. Har bir indikator nisbiy vaznga ega bo'ladi va bu og'irliklar odatda bittaga (100%) qo'shiladi.

6- bosqich. Vaznli deprivatsiya ballini hisoblash (0% dan 100% gacha). Odamlar mahrum bo'lgan barcha ko'rsatkichlarning vazni qo'shiladi.

7- bosqich. Chegara qiymatini aniqlash ($x\%$). Agar shaxsning mahrumlik darajasi $> x\%$ bo'lsa, u ko'p o'lchovli kambag'allikda yashaydi deb hisoblanadi.

8- bosqich. Raqamli nisbatni hisoblash. Bu kambag'allikda yashayotgan aholi ulushi. Kambag'allik darajasi (H) yoki ko'p o'lchovli kambag'allik tarqalish ko'lami – bu ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi kishilar (q)ning jami aholi (n) tarkibidagi ulushi:

$$H = \frac{q}{n} \quad (4)$$

Bunda:

q – ko'p o'lchovli kambag'al deb belgilangan kishilar soni;

n – kishilarning umumiy soni.

9- bosqich. Kambag'al aholining kambag'allik chuqurligini hisoblash. Kambag'allikda yashovchi barcha kishilarning ko'rsatkichlari qo'shiladi va ularni kambag'allikda yashovchi odamlarning umumiy soniga bo'linadi.

Kambag'allik chuqurligi (A) ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi kishilar kambag'allikni boshdan kechirayotgan ko'rsatkichlar to'plamining

o'rtacha o'lchangan ulushini aks ettiradi. Faqatgina ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi kishilar uchun (kambag'allik balli 33,3 foizdan yuqori yoki unga teng bo'lganlar) kambag'allik ballari yig'ilib, ko'p o'lchovli kambag'allik sharoitidagi aholining umumiy soniga bo'linadi.

10- bosqich. MPIni hisoblash. MPI qiymati ikki ko'rsatkichning mahsuli hisoblanadi: ko'p o'lchovli kambag'allik tarqalish ko'lami va kambag'allik namoyon bo'lish darajasi:

$$MPI = H * A \quad (5)$$

Bunda:

H – kambag'allikdagi aholi soni nisbati;

A – kambag'allikning namoyon bo'lish darajasi.

21. Masala:

Aytaylik, jamiyat uchta uy xo'jaligidan iborat. Biz yaratmoqchi bo'lgan MPI uchta mezon bo'yicha guruhlangan quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

O'lcham	Ko'rsatkich	Cheklanganlik va muhtojlik ostonasi	Vazn koeffitsiyenti
P1	a	...	1/18
	b	...	1/18
	c	...	1/18
	d	...	1/18
	e	...	1/18
	f	...	1/18
P2	g	...	1/12
	h	...	1/12
	i	...	1/12
	j	...	1/12
P3	k	...	1/6
	l	...	1/9
	m	...	1/18

Ushbu uch uy xo'jaligi uchun ma'lumotlar yig'iladi va quyidagi jadvalda ko'rsatilganidek, mahrumlik matritsasi tuziladi (ko'rsatkichlar vazni qavs ichida ko'rsatilgan). Jadvaldagi 1 qiymati ushbu komponentda mahrumlikni anglatadi.

	Ko'rsatkichlar													Deprivation ball
	a 1/18	b 1/18	c 1/18	d 1/18	e 1/18	f 1/18	g 1/12	h 1/12	i 1/12	j 1/12	k 1/6	l 1/9	m 1/18	
1 u/x	1	1	0	0	0	1	0	0	0	0	1	1	1	1/2=0,50
2 u/x	0	0	1	1	1	0	1	0	0	0	1	0	0	5/12=0,42
3 u/x	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1	0	0	1/6=0,17

Agar kambag'allik chegarasi, masalan, 33,3% bo'lsa, 1-uy xo'jaligi va 2-uy xo'jaligi ko'p o'lchovli kambag'allikda yashaydilar, chunki ularning mahrumlik ko'rsatkichlari 33,3% ga teng yoki undan yuqori, 3-uy xo'jaligining ko'rsatkichi esa pastroq.

Namunada teng vaznlar qo'llanilsa (namunaviy ma'lumotlar bilan bu har doim ham shunday emas), biz quyidagi qiymatlarni olamiz:

Raqamli nisbat (H) $= 2/3 = 0,67$. Bu shuni anglatadiki, MPI nuqtayi nazaridan aholining 67%i kambag'allikda yashaydi.

Kambag'allar orasidagi kambag'allikning chuqurligi (A) kambag'allar boshdan kechirgan mahrumlikning o'rtacha darajasi yoki $(0,50 + 0,42)/2 = 0,46$ sifatida hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, kambag'allikda yashovchi kishilarning 46% i ko'rsatkichlar bo'yicha mahrumlikda bo'lishadi.

MPI quyidagicha hisoblanadi:

$$H * A = 0,67 * 0,46 = 0,306$$

4-bob. Yakuniy qoidalar

22. Mazkur Nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2021- yil 11- avgustdagi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ-707-son Qonuni. 2025-12-18 ([LEX.UZ](https://lex.uz)), <https://lib.stat.uz>.
2. Европейская комиссия, Международный валютный фонд, Организация экономического сотрудничества и развития, Организация Объединенных Наций и Всемирный банк (2012), "Система национальных счетов 2008".
3. Составление планов выборки для обследований домашних хозяйств: практические рекомендации. Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2010 год.
4. <https://ophi.org.uk/global-mpi>
5. <https://www.unescwa.org/sites/default/files/event/materials/Alkire%20Foster%20Method%20and%20Global%20MPI.pdf>
6. Jahon bankining rasmiy sayti www.databank.worldbank.org.
7. Xalqaro valyuta jamg'armasining rasmiy sayti www.imf.org.
8. MDH Statistika qo'mitasi rasmiy sayti www.cisstat.org.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy sayti stat.uz. <https://siat.stat.uz/>
10. Oxford Department of International Development sayti <https://www.qeh.ox.ac.uk/>
11. <https://www.ox.ac.uk/>
12. O'zbekistonda Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksini tajriba-sinov asosida o'lchash bo'yicha 2023-yilgi hisobot. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bilan BMTTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi.

“Ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni (N-MPI)
baholash to‘g‘risida uslubiy nizom”ga
1-ilova

N-MPI — o‘lchamlar, ko‘rsatkichlar bo‘yicha strukturasi va vazn koeffitsiyentlari

O‘lcham	Ko‘rsatkich	Cheklanganlik va muhtojlik ostonasi	Vazn koeffitsiyenti
Asosiy infratuzilma va yashash sharoitlari (1/3)	Xonadon yashash joyi maydoni	bir kishi uchun yashash maydoni 16 m.kv dan kamroq to‘g‘ri kelsa	1/18
	Uy-joy sharoitlari	ishlov berilmagan pol (<i>tuproq/qum</i>) yoki devorlarga (<i>loy, tosh, guvala, fanera, ikkilamchi ishlatilgan yog‘och</i>) ega bo‘lgan uylarda yashasa	1/18
	Isitish uchun yonilg‘i	hayotga xavf soluvchi issiqlik manbasidan (<i>yasama isitish moslamasi, ovqat pishirish plitasi/pechkasi, uch toshli o‘choq, ochiq olov, isitish moslamasi mavjud bo‘lmasa</i>) yoki uyni isitish uchun sog‘liqqa zararli yoqilg‘i (<i>benzin, kerosin, ko‘mir, o‘tin, hashak, somon, buta, hayvon tezagi, yog‘och qirindilari</i>)dan foydalanayotgan xonadonda istiqomat qilsa	1/18
	Sanitariya	sanitariya sharoitlari yomon bo‘lgan xonadonlarda yashasa (<i>xonadondagi hojatxona turi: yerga qazilgan chuqur/o‘ra (yaxshilangan yoki ventilatsiya mavjud bo‘lmagan), hojatxona mavjud emas yoki qazilgan chuqur/o‘ra hech qachon bo‘shatilmagan yoki boshqa uy xo‘jaliklari bilan birga foydalaniladi</i>).	1/18
	Ichimlik suvi va uni isitish	xonadonda ichimlik suvi ta‘minoti mavjud bo‘lmasa yoki suvni isitish kerak bo‘lganda qattiq yoqilg‘idan (<i>ko‘mir, o‘tin</i>) foydalanilsa	1/18
	Aktivlarga egalik	asosiy maishiy texnikalardan kamida 5 tasi (6 tadan: gaz plitasi, sovutgich, televizor, kir yuvish mashinasi, changyutgich, konditsioner)ga yoki avtomobilga ega bo‘lmasa	1/18

O'lcham	Ko'rsatkich	Cheklanganlik va muhtojlik ostonasi	Vazn koeffitsiyenti
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy kapital (1/3)	Oziq-ovqat xavfsizligi	BMT oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) oziq-ovqat xavfsizligi standartlari bo'yicha (FIES standards) mablag'lari yetmasligi sababli arzon va bir xil oziq-ovqat sotib oladigan yoki yetarli oziq-ovqat olishga imkoniyati cheklangan yoki to'yib ovqatlanmaydigan uy xo'jaliklarida yashasa	1/12
	Davolanishga imkoniyat	so'nggi 3 oyda kasallikni boshdan kechirgan va mablag' yetishmasligi tufayli dori-darmonlar sotib olish imkoniyati cheklangan yoki kasal bo'lib turib shifokorga yoki sog'liqni saqlash muassasalariga (qimmatligi, sifatsizligi, uyda o'zi davolanganligi, uzoqligi, byurokratiya sabablaridan) murojaat qilmagan oila a'zosi mavjud bo'lsa	1/12
	Ta'limga imkoniyat	uy xo'jaligi 18 yoshga yetgan va undan katta a'zolarining hech biri yoki faqat ayollar kamida o'rta maxsus yoki oliy ta'lim olmagan bo'lsa	1/12
	Axborot texnologiyalariga imkoniyat	uy xo'jaligining 18 yoshga yetgan va undan katta a'zolarida mobil telefoni va kompyuter yoki internetga ulanish imkoniyati mavjud bo'lmasa	1/12
Bandlik va moliyaviy xizmatlarga imkoniyat (1/3)	Ishsizlik	uy xo'jaligida doimiy ish bilan band shaxs bo'lmasa yoxud hozirda 18 yoshga yetgan va undan katta a'zolaridan biri ish qidirayotgan ishsiz shaxs bo'lsa	1/6
	Norasmiy bandlik	uy xo'jaligida ish bilan band a'zolarining yarmidan ko'pi norasmiy ish bilan band bo'lsa	1/9
	Bank hisob raqami	uy xo'jaligining 18 yoshga yetgan va undan katta a'zolarida bank hisob raqami yoki plastik kartasi mavjud bo'lmasa	1/18

N-MPI hududlar va ko'rsatkichlar kesimida

[illegible]